



TILNI O‘QITISH, O‘RGANISH VA BAHOLASHDAGI INNOVATSIYALAR.

Abruyeva Malika Zafarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Musurmonova Sevich G‘ulom qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich 2518-guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilni tez va oson o‘rganish usullarida o‘quvchilarda bilish ko‘nikmasini shakllantirish va ularning bilim va malakalarini haqqoniy baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va kompetensiyaga asoslangan baholash tizimlarining samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta‘lim sifatini oshirish va o‘quvchilarining til kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion usullarning muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Metodika, ta‘lim, baholash mezonlari, gamifikatsiya.

Bugungi globallashtirilgan, raqamli dunyoda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab kundan kunga oshib bormoqda, chunki chet tillar yoshlarga haqiqiy baxt va imkoniyat eshiklarini ochib bera olishi hech kimga sir emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq maqsadi bor va motivatsiyaga ega insonlar xorijiy tillarni 2 baravar tez va osonroq o‘rgana oladi. Ya‘ni siz nima uchun bu narsani qilayotganingizni yoki bu narsa sizga nima uchun kerak ekanligini tushunmaguningizcha, sizda bu maqsaddan keladigan hech qanday natija bo‘lmaydi. Bunda bizga **SMART** metodikasi yordamga keladi. Bu usulda

S- SPECIFIC ya‘ni maqsad aniqligi

M- MEASURABLE- o‘lchovli bo‘lishi kerak. Misol uchun, IELTSDA bo‘lsa raqamlarda o‘lchov bo‘lishi kerak 8,5 yoki 7,5 kabi.

A-ATTAINABLE ya‘ni erishga bo‘ladigan maqsadlar bo‘lishi kerak, faqat xayollarda o‘ylangan orzu-maqsadlar amalga oshmasligi mumkin.

R-RELEVANT- maqsadingiz muhim bo‘lishi kerak.

T-TIME BASED –vaqtga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunda o‘zingizga qachon degan savolni bera olishingiz zarur ya‘ni yangi tilni o‘rganishni boshlashingiz yoki tugatishingiz vaqti aniq bo‘lishi dardkor.

Keyingi asosiy usullardan biri bu- o‘quvchilarda intizomni shakllantirib olish kerak. Bu ko‘nikma bir til yoki bilimni chuqur o‘zlashtirib olish uchun insonlarda mas‘uliyat va javobgarlikni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchi va talabalarga tillarni samarali o‘rganishga yordam beradigan bir nechta sun‘iy intellekt namunalari ixtiro qilingan. Misol uchun, kahoot, padlet, quizlet, topqir.uz orqali o‘tkaziladigan interaktiv darslar va onlayn testlar, video konferensiyalar o‘quvchilarni bilim olishga undaydi.

Innovatsion metodlar orasida Gamifikatsiya asosida o‘qitish usuli katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, describe and guess, hot seat, categories kabi o‘yinlar ham juda mashhur. Masalan, hot seat o‘yinida bir o‘quvchi orqaga qarab o‘tiradi va doskaga so‘z yoziladi boshqalar esa uni inglizcha gaplar bilan tushintiradi, u esa topadi. Bu o‘yin o‘quvchilarda xorijiy tillarda ravon gapirish va to‘g‘ri fikrni yetkazib berish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bundan tashqari bir tilni bilish ikkinchi tilni o‘rganishga imkon beradi. Misol uchun, uzbek tilidagi “sen” so‘zi xitoy tilida uch xil ma‘noni anglatadi.



San- uch, soyabon, tarqalmoq degan ma'nolarni anglatadi. Metodlar orasida tillarni xorijiy tillarda filmlar ko'rib o'rganish eng qiziqarlisi hisoblanadi. Bunda siz ham eshitib ham o'qib o'rganish malakangizni shakllantirasiz.

Xuddi shunga o'xshash, ijtimoiy tarmoqlardagi xorijiy yangiliklarni ingliz, nemis va kareys tillarda o'qish orqali siz ham yangiliklardan xabardor bo'lasiz ham yangi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganasiz. Yapon tadqiqotchisi biri Masaru Ibuka mashhur "Uchdan keyin kech" kitobida yozganidek: ...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin... 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlarni ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Tilni mazmunli va qiziqarli o'rganish uchun quyidagi medotlardan foydalanishni tavsiya etishgan.

1. Ko'rish orqali eslab qolish:

Darslarni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p qo'llanadigan narsa va buyumlarga so'zlarni bog'lash orqali yangi so'zlarni tez va oson o'rganish mumkin.

2. Qo'shiq va she'rlar orqali tushinishi yoki eslab qolishi qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash.

3. Aralash texnika – bu texnikada biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtirib olamiz.

Masalan, bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiq kuylashi rasm chizish orqali yangi bilim va so'zlarni zerikmay o'rganishi mumkin.

Dunyo bo'yicha o'rganish uchun eng oson tillar.

Birinchil til bu – esperanto tili. Bu tilni grammatikasi juda oson, chunki u 16 ta grammatik qoidadan iborat va hech qanday istisnolarsiz. Bu til har xil millat vakillarining suhbatini osonlashtirish uchun tuzilgan. Bu tilni o'rganish uchun atigi 150 soat vaqt sarflash kifoya. Ingliz tili bilan solishtirganda o'n barovar oson hisoblanadi.

Ikkinchi til bu- Italyan tili grammatikasi juda oson . So'zlarni yozilishi va o'qilishi deyarli farq qilmaydi, tuzilishiga ko'ra Ingliz, Portugal, Fransuz tillariga juda o'xshash.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekova G.N ; Uralova N.A. Innovative teaching methods in teaching foreign languages, 2022.
2. Axmedova, N. Sh. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Harmer, J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
4. Ibuka, M. Uchdan keyin kech. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
5. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
6. Yo'ldoshev, J. G. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.